



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

INGLIZ TILI DARSLARIDA MATN USTIDA ISHLASHDA LEKSIK-PRAGMATIK KOMPETENSIYANI TAKOMILLASHTIRISHDA TURLI YONDASHUVLAR

Yusupova Nodiraxon Erkinjon qizi

Zahriddin Muhammad Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti, tayanch doktoranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada leksik-pragmatik kompetensiyani rivojlantirishda kontekstual tahlil, pragmatik tahlil va interaktiv pragmatik yondashuvlarning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, matn bilan ishlash jarayonida ushbu yondashuvlardan foydalanish talabalarning matnni chuqur anglash, yashirin ma'nolarni aniqlash va til birliklaridan kommunikativ vaziyatga mos holda foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: leksik-pragmatik kompetensiya, kontekstual tahlil, pragmatik tahlil, interaktiv pragmatika, nutqiy vaziyat, implikatura, kommunikativ kompetensiya, matn tahlili.

УРОКИ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА: РАЗЛИЧНЫЕ ПОДХОДЫ К РАЗВИТИЮ ЛЕКСИКО-ПРАГМАТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ ПРИ РАБОТЕ С ТЕКСТОМ

Юсупова Нодирахон Эркинжон кизи

Андижанский государственный университет имени Захриддина Мухаммада Бобура,
базовый докторант

Аннотация

В данной статье освещается значение контекстуального анализа, прагматического анализа и интерактивного прагматического подхода в развитии лексико-прагматической компетенции. Также анализируется, как использование этих подходов при работе с текстом способствует развитию у студентов навыков глубокого понимания текста, выявления скрытых значений и использования языковых единиц в соответствии с коммуникативной ситуацией.

Ключевые слова: лексико-прагматическая компетенция, контекстуальный анализ, прагматический анализ, интерактивная прагматика, речевая ситуация, импликатура, коммуникативная компетенция, анализ текста.

ENGLISH LANGUAGE LESSONS: VARIOUS APPROACHES TO ENHANCING LEXICAL-PRAGMATIC COMPETENCE THROUGH TEXT-BASED ACTIVITIES

Yusupova Nodiraxon Erkinjon qizi

Andijan State University named after Zahriddin Muhammad Babur, Basic Doctoral Student

Abstract

This article highlights the significance of contextual analysis, pragmatic analysis, and the interactive pragmatic approach in developing lexical-pragmatic competence. It also examines how the application of these approaches in working with texts helps students develop skills in deep text comprehension, identifying implicit meanings, and using linguistic units appropriately according to communicative context.

Keywords: lexical-pragmatic competence, contextual analysis, pragmatic analysis, interactive pragmatics, speech situation, implicature, communicative competence, text analysis.

Nutqiy faoliyat turlari va ular bajarayotgan vazifalarni talabalar tomonidan tushunilishi

va kundalik hayotda yoki badiiy, ilmiy, publitsistik matnlarni o'qish faoliyatida osonlik bilan anglab yetilishi uchun ular leksik-pragmatik kompetensiyaga ega bo'lmoqliklari lozim. Ushbu kompetensiya to'g'ri tanlangan metodlar yordamida matn ustida ishlash darslarida pedagog tomonidan uzviy rivojlantirilib borilishi kerak. Xususan, **kontekstual tahlil yondashuvi** leksik birliklarning kontekstual ma'nosi, vazifasi va kommunikativ faoliyatdagi o'rnini matn asosida aniqlashga qaratilgan yondashuv hisoblanadi. Mazkur yondashuvning asosiy xususiyati til birliklarini alohida kontekstdan tashqari holatda emas, balki haqiqiy nutq sharoitida o'rganishdir. Ushbu metod nutqni pragmatik, semantik va stilistik jihatdan tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, F.de Sossyur, M.A. Halliday, H.Grays, J.Austinlarning ilmiy nazariyalari asosida vujudga kelgan. Til birliklari tomonidan nutqda ifodalangan o'ziga xos ma'no, maqsad va ta'sir doirasini turli matnlar asosida o'rganish kontekstual tahlil metodining obyekti hisoblanadi [1]. Kontekstual tahlil yondashuvi matnga asoslangan ta'lim muhitida so'zlarning denotativ (lug'aviy ma'nosi) va konnotativ (ko'chma ma'nosi) ma'nolarini tahlil qilish, til birliklarining pragmatik vazifasi, ya'ni ular ifodalagan muloqot maqsadini aniqlash, mazkur birliklarning kontekstdagi o'zaro ta'sirini aniqlash, madaniy va ijtimoiy omillarning so'zlar ma'nosiga ta'sirini o'rganish kabi vazifalar amalga oshiriladi.

Kontekstual tahlil yondashuvi muvofiq matn (badiiy, publitsistik, ilmiy, so'zlashuv nutqlariga oid) tanlash, til birliklarini lug'aviy ma'nolarini aniqlash, so'ngra kontekstga asoslangan holda ular ifodalagan pragmatik ma'nolarni tahlil qilish, to'plangan ma'lumotlar asosida ularning matndagi vazifasi va ta'sirini baholash kabi bosqichlarda amalga oshiriladi [2].

Ushbu yondashuvni o'quv jarayonlarida qo'llash orqali leksik-pragmatik kompetensiyani takomillashtirish quyidagi usullarda yuzaga keladi:

- autentik matnlar orqali so'zlarning ko'p ma'no xususiyatlarini aniqlash;
- talabalarning matnni mustaqil chuqur tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish;
- muloqotda til birliklaridan o'rinli foydalanish qobiliyatlarini o'stirish;
- talabalarni leksik birliklarning mazmuniy hamda uslubiy o'ziga xosliklarini anglashga o'rgatish.

Keling, ushbu yondashuvning qo'llanilishini amaliy misollar (filmdan olingan parcha) asosida tahlil qilamiz.

Authentic context from the film "The Devil wears Prada":

Situation: The Boss is observing her assistant moving slowly to complete the task and she says:

"By all means, move at a glacial pace. You know how that thrills me." (Bemalol muz qoya tezligida harakatlanavering. Bu menga juda yoqadi).

Lug'aviy tahlil:

By all means – marhamat, bemalol.

Move at a glacial pace – muz tog'lar tezligida harakatlanish, ya'ni juda sekin.

That thrills me – meni hayajonlantiradi.

Lug'aviy tahlilga ko'ra xo'jayin yordamchisining harakatlaridan qoniqyapti va so'zlovchi tinglovchiga nisbatan ijobiy va samimiy nutqiy faoliyatni amalga oshirmoqda.

Kontekstual tahlil:

Ushbu kontekstdagi nutqiy vaziyatda so'zlovchining salbiy munosabati nutqdagi intonatsiya, yuz ifodasi yordamida anglab olinishi mumkin.

Pragmatik tahlil:

So'zlovchining maqsadi (illokutiv faoliyat) tanbeh berish, norozilik bildirish hisoblanadi. Nutqiy faoliyat shakli sifatida bilvosita tanbeh berish nutqiy faoliyati tanlangan, ya'ni "by all means" leksik birligining ifodalanishi tanbeh berishda kinoyali bo'lsada qo'pol til birliklaridan foydalanishdan qochish holatini ko'rsatadi.

Sotsiopragmatik tahlil:

Ingliz madaniyatida rasmiy muloqotda (ushbu kontekstda ish beruvchi va ishchi orasidagi muloqotda) qo‘pol til birliklaridan foydalanish nutqiy etikaga zid holat hisoblanadi, shuning uchun xushmuomalalik tamoyiliga rioya qilish e‘tiborga olinadi. Yuqoridagi kontekstda xushmuomalalik tamoyilining bilvosita shakli (on-record)dan foydalanilgan.

Kontekstual tahlil natijasi:

Mazkur konteks semantik jihatdan ijobiy munosabatni saqlasada, pragmatik tahlil natijasida salbiy munosabat ifodalanganini aniqlash mumkin. So‘zlovchi tinglovchiga xushmuomalalik tamoyillari asosida bilvosita tanbeh bermoqda.

‘Pragmatik tahlil yondashuvi – matnda ishlatilgan nutq birliklari ifodalagan ma‘noni nutq jarayoni, ijtimoiy vaziyat va muloqot ishtirokchilari o‘rtasidagi munosabatlarni tahlil etgan holda o‘rganish uslubidir [3]. Bu tahlil metodi asosida matnda ishlatilgan so‘zlarning semantik yoki lug‘aviy ma‘nosi emas, balki nima maqsadda (illokutiv kuchi) va tinglovchi yoki talabaga qanday ta‘sir ko‘rsatish (perlokutiv kuchi) uchun aytilganligi aniqlanadi [4]. Ushbu yondashuvning nazariy asoslari J.Austin, J.Searle, H.Grays kabi olimlar tomonidan tilshunoslik faniga tanishtirilgan.

Mazkur yondashuvning asosiy vazifalari gapning illokutiv kuchi (nutqiy maqsad)ni tahlil etish, matndagi yashirin ma‘nolarni aniqlash, kontekstual omillar (vaziyat, ijtimoiy omillar, madaniyat)ni matn tahlili jarayonida nazarga tutish hamda so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasida pragmatik munosabatni aniqlashlardan iboratdir.

Pragmatik tahlil yondashuvi quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

- Kontekstni aniqlash. Matn qaysi nutqiy vaziyatda, qachon, kimlar orasida, qaysi madaniy muhitda amalga oshirilganligi aniqlanadi.
- Lokutiv tahlil. Matnda ishlatilgan til birliklarining lug‘aviy ma‘nosi aniqlanadi.
- Illokutiv tahlil. Gapning maqsadi, ya‘ni ushbu matn so‘rov, va‘da, xabar, taklif ma‘nosida aytilganligi tahlil ostiga olinadi.
- Perlokutiv tahlil: Gapning tinglovchiga ta‘siri (hissiy, harakatga keltiruvchi kabi) aniqlanadi.
- Yashirish ma‘nolar tahlili (Implikatura). Matnda ifodalangan, bilvosita uzatilgan axborot tahlil etiladi [5].

Pragmatik tahlil yondashuvi turli shakldagi matnlarni tahlil etishda hamda matnda ifodalangan pragmatik ma‘nolarni aniqlashda samarali usul hisoblanadi. Masalan,

- It is getting late, isn’t it?
- Oh, I didn’t realize. I should go.

Yuqoridagi dialogda ifodalangan lokutiv ma‘no – “kech bo‘lyapti, shunday emasmi?”, illokutiv ma‘no esa “sen endi ketishing kerak”, bu orqali so‘zlovchi bilvosita tinglovchini ketishga undovchi so‘rov yoki ogohlantirish xabarini yubormoqda. Ushbu matndan biz to‘g‘ridan to‘g‘ri aytilmagan, lekin nazarda tutilgan ma‘noni aniqlab olishimiz uchun pragmatik tahlil metodiga murojaat etishimiz lozim. Tinglovchi ushbu holatda, so‘zlovchining yashirin nazarda tutgan so‘rovini qabul qiladi va ketishga qaror qiladi va bu ushbu matnning perlokutiv kuchi hisoblanadi. Ushbu matnda ifodalangan yashirin ma‘no “ketish vaqti bo‘ldi” hisoblanib, bevosita aytilmagan bo‘lsada, nutqiy vaziyatni tahlil etgan holda anglab olinishi mumkin.

Interaktiv pragmatik yondashuv pragmatikaning zamonaviy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, unda kommunikatsiya jarayoni ikki tomonlama faol muloqot sifatida qaraladi [6]. Mazkur yondashuvga ko‘ra, nutqning ma‘nosi tayyor shaklda berilmaydi, balki suhbatdoshlar o‘zaro hamkorlik, muloqot strategiyalari va kontekst asosida birgalikda quradilar. Ya‘ni ma‘no so‘zlovchi tomonidan yuborilgan signal va tinglovchi tomonidan berilgan javoblar uyg‘unligida shakllanadi. Shuning uchun ham interaktiv pragmatika tilni statik hodisa emas, balki jarayonda yuzaga keladigan dinamik, o‘zgaruvchan va ijtimoiy xarakterga ega bo‘lgan hodisa sifatida talqin qiladi.

Bu yondashuv muloqotning real sharoitda kechishini, unda ishtirok etuvchi shaxslarning rollari, maqsadlari, nutq niyati, ijtimoiy maqomlari hamda vaziyatga mos til vositalaridan foydalanish malakasini o'rganishga asoslanadi. Interaktiv pragmatika suhbat davomida yuz beradigan navbat bilan so'zlashish (turn-taking), uzilishlar, tuzatishlar (repair), fikrni tasdiqlash yoki inkor etish, hamfikrlik yaratish, kelishuvga kelish kabi jarayonlarni tahlil qiladi. Bu jarayonlar orqali muloqot ishtirokchilari o'zaro tushunish, kelishish va ma'no almashishning jonli mexanizmini yaratadi [7]. Shu ma'noda interaktiv yondashuv pragmatikaning dialogik tabiatini yoritib, tilning real ijtimoiy hayotdagi funksiyasini ilmiy nuqtai nazardan ochib beradi.

Misol tariqasida, suhbatda kimdir "Bugun juda band edim" desa, tinglovchi uning shikoyat qilayotganini, bahamjihatlik kutayotganini yoki suhbatni boshqa mavzuga yo'naltirmoqchi ekanini interaktiv belgilar orqali anglaydi. Bu yerda javoblar, intonatsiya, tana tili, pauza yoki kulimsirash kabi ekstralingvistik vositalar ham ma'no yaratishda ishtirok etadi. Demak, interaktiv pragmatik yondashuv tilni faqat grammatik shakllar yig'indisi sifatida emas, balki real muloqotdagi faol hamkorlik vositasi sifatida ko'radi, unda ma'no suhbat jarayonida hamkorlik asosida ishlab chiqiladi.

Interaktiv pragmatik yondashuv til o'rganish, nutq ko'nikmalarini rivojlantirish va kommunikativ ta'lim jarayonida katta ahamiyatga ega bo'lib, talabani faol subyekt sifatida ko'radi [8]. Bu yondashuv muloqotni mashq qilish, rol o'ynash, dialogik vazifalar, muhokama va debat kabi faol usullar orqali pragmatik kompetensiyani kengaytirishga xizmat qiladi [9]. Shu orqali o'rganuvchilar nafaqat til shaklini, balki uni real vaziyatlarda qanday ishlatishni, muloqotda mos strategiyalarni qo'llashni, suhbatni boshqarish va kontekstga mos javob qaytarishni o'rganadilar.

Yuqoridagi tahlillardan ko'rinadiki, leksik-pragmatik kompetensiyani rivojlantirish nutqiy faoliyat turlarini samarali egallash hamda matn mazmunini chuqur anglash jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Matn bilan ishlash jarayonida kontekstual tahlil, pragmatik tahlil hamda interaktiv pragmatik yondashuvlardan foydalanish talabalarga til birliklarining nafaqat lug'aviy ma'nosini, balki ularning nutqiy vaziyatdagi maqsadi, yashirin ma'nosi va kommunikativ vazifasini ham anglash imkonini beradi.

Shuningdek, autentik matnlar, dialoglar hamda real kommunikativ vaziyatlar asosida olib borilgan tahlillar talabalarining matnni mustaqil tahlil qilish, yashirin ma'nolarni aniqlash, nutqda til birliklaridan o'rinli foydalanish hamda madaniy va ijtimoiy omillarni hisobga olish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ferdinand de Saussure. Course in General Linguistics. - New York: McGraw-Hill, 1966. - 240 p.
2. M. A. K. Halliday. An Introduction to Functional Grammar. - London: Edward Arnold, 1985. - 387 p.
3. H. P. Grice. Logic and Conversation. - New York: Academic Press, 1975. - 58 p.
4. J. L. Austin. How to Do Things with Words. - Oxford: Oxford University Press, 1962. - 166 p.
5. John Searle. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. - Cambridge: Cambridge University Press, 1969. - 203 p.
6. George Yule. Pragmatics. - Oxford: Oxford University Press, 1996. - 138 p.
7. Geoffrey Leech. Principles of Pragmatics. - London: Longman, 1983. - 250 p.
8. Safarov Sh. Pragmalingvistika. - Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi nashriyoti, 2008. - 300 b.
9. Mahmudov N. Til va nutq madaniyati. - Toshkent: O'qituvchi, 2010. - 176 b.
10. Anderson R., Steffensen M., Joag-Dev C. Schema Theory and Reading Comprehension. - Cambridge: Cambridge University Press, 1984. - 210 p